Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK: 9.433
ORCID: 0009-0000-1932-8856

ILK O'RTA ASRLARDA CHAG'ONIYON TOPONIMLARI BILAN BOG'LIQ TADQIQOTLAR

Boboyeva Sitora Ro'zimaxmatovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
katta o'qituvchi
E-pochta: sitoraboboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi davrdan shakllangan Vatanimizning janubiy hududida shakllangan Chag'anyonning tarixiy toponimlari haqida so'z boradi. Shuningdek Shimoli-g'arbiy Baqtriya-Toxariston, o'rta asrlar Termiz va Chag'oniyonning qadimgi davrlardan XIX asrga qadar tarixiy toponimlarini yozma, arxeologiya va lingvistik ma'lumotlarni chuqur qiyosiy taqqoslash orqali o'rganish, o'lkaning har bir tarixiy bosqichga xos joy nomlarini va ularning etimologiyasi masalalari ochib beriladi.

Tadqiqot maqsadi O'zbekiston Respublikasining tarixiy joylarga boy hududlaridan biri Surxondaryo viloyati Mustabid sovet tuzumi davrida qator joy nomlari asossiz ravishda o'zgartirildi, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga xos bo'lmagan nomlar bilan atalgan mavze, aholi manzillari soni ko'paydi. Mustaqillik sharofati bilan tarixiy ildizlarga ega bo'lgan joy nomlari qayta tiklanishi va hozirda ham bu jarayon davom etganini yoritib berishdan iborat.

XVI-XIX asrlar davomida Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Buxoro amirligi hukmronligi davrlarida Termiz va Chag'oniyon hududlarida ko'plab tarixiy toponimlarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu o'z navbatida Surxon vohasida XVI-XIX asrlar davomida shaharazlik, savdo-sotiq va madaniy hayot o'ziga xos yo'nalishda taraqqiy etib borganligidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: Tarmita, Toxariston, manbalar, Chag'anyon, shohnoma, toponimlar.

ИССЛЕДОВАНИЕ ТОПОНИМОВ ЧАГАНСКОГО ТИПА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические топонимы Чаганён, которые сложились в южном регионе нашей Родины с древнейших времен. В работе также рассматриваются исторические топонимы Северо-Западной Бактрии-Тохаристана, средневекового Термеза и Чаганиёна с древнейших времен до XIX века посредством углубленного сравнительного изучения письменных, археологических и лингвистических данных, а также выявляются топонимы, характерные для каждого исторического этапа региона, и их этимология.

Целью исследования является определение исторической значимости Сурхандарьинской области, одного из регионов Республики Узбекистан, богатого историческими памятниками. В советское время ряд топонимов был необоснованно изменен, увеличилось количество местностей и населенных пунктов с названиями, не характерными для истории и культуры нашей страны. Его цель — подчеркнуть возрождение географических названий с историческими корнями благодаря независимости и продолжающемуся процессу.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

XVI-XIX вв. характеризуются появлением многочисленных исторических топонимов в районах Термеза и Чаганиана в период правления Шейбанидов, Аштарханидов и Бухарского эмирата. Это, в свою очередь, свидетельствует о том, что урбанизация, торговля и культурная жизнь в Сурханском оазисе развивались в уникальном направлении на протяжении XVI-XIX вв.

Ключевые слова: Тармита, Тохаристан, источники, Чаганян, Шахнаме, топонимы.

RESEARCH ON CHAGANIAN TOPONYMS IN THE EARLY MIDDLE AGES

Annotation: This article discusses the historical toponyms of Chaganyon, which were formed in the southern region of our Motherland from ancient times. It also studies the historical toponyms of Northwestern Bactria-Tokhariant, medieval Termez and Chaganyon from ancient times to the 19th century through a deep comparative study of written, archaeological and linguistic data, revealing the place names of each historical stage of the country and their etymology.

The purpose of the research is to reveal that during the Soviet regime, a number of place names were unreasonably changed in Surkhandarya region, one of the regions of the Republic of Uzbekistan rich in historical places, and the number of areas and settlements called by names not characteristic of the history and culture of our country increased. It is to shed light on the fact that thanks to independence, place names with historical roots were restored and this process continues to this day.

During the 16th-19th centuries, the territory of Termez and Chaghaniyan was characterized by the emergence of many historical toponyms during the reign of the Shaybanids, Ashtarkhanids, and the Bukhara Emirate. This, in turn, indicates that the Sahara, trade, and cultural life of the Surkhan oasis developed in a unique direction during the 16th-19th centuries.

Key words: Tarmita, Tokharistan, sources, Chaganyan, Shahnameh, toponyms.

KIRISH. Tarixiy toponimlar o‘zida qadimgi tarixni mujassam etib, har bir o‘lka va uning aholisi tarixida sodir bo‘lgan etnomadaniy jarayonlarni, qadimgi tillar hamkorligini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Qadimgi davrlardan o‘z hududida madaniyat, ilk sivilizatsiyalar va uning manbaida dastlabki davlatlar shakllangan Vatanimizning barcha hududlari o‘ziga xos xilma-xil tarixiy toponimlarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. O‘z navbatida mustaqil O‘zbekiston Respublikasining tarixiy joylarga boy hududlaridan biri Surxondaryo viloyati hisoblanadi. Mustabid sovet tuzumi davrida butun Vatanimizda bo‘lganidek Surxondaryo viloyatining ham qator joy nomlari asossiz ravishda o‘zgartirildi, mamlakatimiz tarixi va madaniyatiga xos bo‘lmagan nomlar bilan atalgan mavze, aholi manzillari soni ko‘paydi.

Mustaqillik sharofati bilan tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan joy nomlari qayta tiklandi va hozirda ham bu jarayon davom etmoqda.

Surxon vohasining markaziy shahri Tarmita-Termizning aholi manzili sifatida va Tarmita-Termiz tarixiy toponimining shakllanganligiga 2500 yil bo‘lgan. Miloddan avvalgi 329-327 yillar oralig‘ida makedoniyalik Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy) ning Transoksianiya (Sirdaryo va Amudaryo oralig‘i hududi) ga yurishi davomida tilga olingan gidronim Ukuz (qadimgi yunoncha Oks), oronim Bubakena (Bobotog‘), Pareytakena, Pandaxeyon (Pardagvi) Surxon vohasi bilan bog‘liq qadimgi gidronim, oronim va toponimlar bular sirasiga kiradi. “Temir darvoza” yoki Dari Ohanin, Boysun, Vaxshuvor kabi tarixiy toponimlar Kushon podsholigi hukmronligining dastlabki asrlarida

shakllanib taraqqiy etib keldi. Garchand arxeologik tadqiqotlar tufayli Ayritom, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa va boshqa Yunon-Baqtriya, Kushon podsholiklari davriga oid yodgorliklardan topilgan epigrafika manbalarida tarixiy joy nomlari qayd etilmagan bo'lsada, Ayritom yozuvida karalrang (ehtimolki viloyat hokimi) lavozimini[1, 4], Qoratepa buddaviylik lari majmuida topilgan yozuvlarda "podsho monastiri"[2, 45] yoki otli monastr (Fayoztepa) mansab va atamalarning o'qilishi milodning boshlaridayoq Surxon vohasida, ya'ni Shimoli-g'arbiy Baqtriya hududida murakkab toponimik jarayon mavjud bo'lganligidan dalolat beradi.

Yangi numizmatika va epigrafika ma'lumotlariga ko'ra Baqtriya o'lkasi III asrning ikkinchi yarmidan to 383-yilga qadar kushonlar deb yuritilgan.

Surxon zamini milodiy 383-yildan boshlab Toxariston o'lkasining tarkibiy qismi. Tarixiy tadqiqotlardan ma'lumki, toxar atamasining paydo bo'lishi miloddan avvalgi II asrning to'rtinchi choragida Yunon-Baqtriya podsholigining hukmronligiga barham bergan Da-yuechji ya'ni (toxar) qabilalariga borib taqaladi[3, 47-48].

Ilk o'rta asrlarda toxar atamasi etnonimdan toponimga aylanib toxar etnosi kelib o'rnashgan butun tarixiy-madaniy o'lka nomini anglata boshlagan[4, 34-35]. Etnolingvistik tadqiqotlarga ko'ra, "Toxar" atamasi "oq bosh" ma'nosini anglatadi.

Ilk o'rta asrlarda Toxariston, shu jumladan uning shimoli-sharqiy qismida murakkab etnik jarayonlar sodir bo'lib, o'lkaning turkiylashish jarayoni tezlashgan. Tillar xilma-xilligi va shuningdek, mamlakatning ko'plab kichik mulkliklarga bo'linib ketishi (ularning soni butun Toxariston bo'yicha 27 ta bo'lgan) o'z navbatida turli-tuman joy nomlarining paydo bo'lishiga olib kelgan.

Bu jarayon vohada Islom madaniyatining shakllangan davrida, rivojlangan o'rta asrlarda IX-XIII asr boshlari, Amir Temur va Temuriylar, shuningdek so'nggi o'rta asrlar davrida ham muttasil davom etib bordi.

Surxon vohasi joy nomlarining o'rganilishi tarixidan qadimda Shimoli-g'arbiy Baqtriya-Toxariston tarixiy joy nomlarini o'rganish ishi XIX asrning 70-yillarida boshlangan. Bu jarayon bevosita avstriyalik olim V.Tomashek faoliyati bilan bog'liq[5]. Bu davr rus sayyohlari va geograflari orasida viloyatning tarixiy toponimikasiga ham sharhlar bergan shaxslardan biri N.A.Mayev hisoblanadi[6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Chag'oniyon ilk bora yozma manbalarda xitoylik buddaviy kohin Syuan Dzyan (milodiy 630-yil) tafsilotlarida qayd qilingan. Syuan Dzyan ma'lumotlariga ko'ra "Chi-go-yen-na", ya'ni Chag'oniyon (Sag'oniyon) sharqdan g'arbga 400 li va shimoldan janubga tomon 500 li masofaga cho'zilgan. Uning poytaxti devorining uzunligi 10 kilometrga teng bo'lib, unda 5 ta buddaviylik monastiri bor[7].

Chag'oniyon V-VII asrlarda Toxariston o'lkasining mulkliklaridan biri bo'lib, uning markazi ham ayni shu nomda yuritilgan. Chag'oniyon tarixi topografiyasi, o'lkaning qadimgi va o'rta asrlar davri madaniyati tarixining ko'p jihatlari G.A. Pugachenkova, E.V. Rtveladze, Sh.S. Kamoliddinov tadqiqotlarida yoritilgan.

Bizning tadqiqotimizdan asosiy maqsad Chag'oniyon shahri va Chag'oniyon viloyati tarixiy toponimlarini yoritish nuqtai-nazaridan kelib chiqib asosiy e'tiborni Chag'oniyon va uning hududida joylashgan tarixiy toponimlar etimologiyasini yoritishga qaratamiz. G.A. Pugachenkova fikricha, Chag'oniyon (Sag'oniyon) atamasi bu hududda miloddan avvalgi II asrda istiqomat qilgan, aniqrog'i Yunon-Baqtriya davlati hukmronligiga barham bergan sak qabilalari nomi bilan bog'liq.

E.V. Rtvladzega ko‘ra Chag‘oniyon toponimini ancha qadimda paydo bo‘lgan deb faraz qilishga barcha asoslar bor. Xususan, Firdavsiy o‘zining mashhur “Shohnoma” asarida, qadimgi afsonaviy davrlarga oid Rustam va Afrosiyob o‘rtasidagi kurashni aks ettirgan asarlaridan birida, Chag‘oniyonni eslab o‘tadi. Sosoniylar shohi Baxrom Go‘r Varaxran I (421-439 yillar) davri voqealari aks ettirilgan she’rlarida esa Chag‘oniyon botiri Fortush haqida hikoya qilinadi.

Arab tarixchisi Abu Hanifa ad-Dinovariy asarida Chag‘oniyon sosoniy shahanshohlar Qubod (484-531 yillar) va Xusrav Anushervon (531-579 yillar) hukmronligiga bog‘lab yodga olinadi. Forscha “on” (yon) qo‘shimchasi birikmasidagi Chag‘oniyon joy nomi keyinroq paydo bo‘lgan va uning o‘zagini “Chag‘oniy” toponimi tashkil etadi. Taniqli tarixchi-lingvist V.A. Livshis Afrosiyobdagi so‘g‘d devoriy suratlardagi yozuvlarida, Firdavsiyning “Shohnoma”sida, shuningdek “Nafnoma” deb ataluvchi xalqlar ro‘yxatida bu nom Chag‘oniy shaklida ifodalanganligiga e’tibor berdi. Bu viloyat nomining mahalliy tilda atamasi bo‘lishi mumkin. E.V. Rtveladze fikricha, Chag‘oniy so‘zi ma’nosi olimlar uchun hanuzgacha jumboq bo‘lib kelayotir, chunki hozircha chag‘oniy tili haqida ma’lumot yo‘q, uning baqtriya tilining shevalaridan biri deb taxmin qilinadi[8, 35-36].

I. Markvartga ko‘ra, Chag‘oniyon viloyatining nomi mo‘g‘ilcha sagan so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “oq” degan ma’noni anglatadi. Chog‘on yoki Chagan nomining kelib chiqishi shuningdek samodiy sa”ua so‘zi bilan bog‘liq[9, 132-134].

Ayniqsa, Chag‘oniyon atamasining “oq” degan ma’noda izohlash e’tiborga loyiqdir. Samarqanddagi (qadimgi Afrosiyob) xitoycha Kan (Samarqand) shahri ixshidlari qabul zallaridan birida So‘g‘d hukmdori Varxuman (hukmronligi 650-696 yillar) davrida elchilar tasvirlangan. Elchilar guruhi orasida elchilardan birining yaktagi (xalati)da yozilgan baqtriya va so‘g‘diy yozuvlarga ko‘ra, bular podsho Chag‘on Turantoshning elchilari bo‘lgan[10, 55]. Eng muhimi, qabul marosimida tasvirlangan ikki shaxs ya’ni chag‘oniyonlik elchilardan birining bosh qismi oq bo‘yoq orqali tasvirlangan[11]. Bu haqda E.V. Rtveladze ham shunday fikr bildirgan[12, 94].

Chag‘oniyon qulay tabiiy-geografik hududda joylashish bilan birga, boy viloyat ham edi. Shu sabab o‘rta asrlar davri manbalarida Chag‘oniyon davlatining ma’muriy-boshqaruv tizimi, ijtimoiy-siyosiy ahvoli, uning qo‘shni mamlakatlar bilan olib borgan elchilik va savdo-sotiq munosabatlari haqida ko‘pgina ma’lumotlarni uchratish mumkin. Yozma va arxeologik manbalar Chag‘oniyonning o‘rta asrlar davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti to‘g‘risida muhim xabarlarni beradi.

Milodiy III asr o‘rtalarida Kushonlar imperiyasi og‘ir ijtimoiy-siyosiy inqirozga duch keldi. Bir tomondan, mamlakatdagi ichki nizolar davlatni kuchsizlantirib qo‘ygan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sosoniylar Eroni o‘z tazyiqini tobora kuchaytirib bormoqda edi. Oxir-oqibat sosoniylarning qo‘li baland keldi. 262-yilda Shopur I ning Naqshi Rustamdagi Kaaba-ye Zardushtda yozdirgan g‘alaba bitigida Kushonshahrdan to Peshovargacha, Turon, Kesh, So‘g‘d va Shoshiston o‘lkalari bosib olinganligi qayd etiladi[13, 14].

Sosoniylarning harbiy yurishlari Shimoliy Baqtriyaga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, Termizdagi Qoratepa budda ibodatxonasi inqiroziga sosoniylarning bosqini sabab bo‘lishi mumkin. Chunki, qazishmalar vaqtida ibodatxona hovlilaridan biridagi tokchada, shoshilinch tarzda xom g‘ishtdan qurilgan otashkada topilgan, uning o‘rnida ilgari mahobatli budda haykali bo‘lgan. Bu yerda buddaviylik ibodatxonasini zardushtiylik ibodatxonasiga aylantirish harakatlari kuzatiladi[14,176]. Shunga o‘xshash holat Chag‘oniyon shaharlarida ham ro‘y bergan. Xolchayon va Dalvarzintepa

singari shaharlarda tushkunlik alomatlari seziladi.

Bosib olingan yerlarda sosoniylarga qaram Kushonshahr (Kushon shohligi) tashkil etilgan. Uning tarkibiga Chag'oniyon yerlari ham kirgan. Kushonshahrning asosiy yerlari Toxaristonda bo'lib, Termizdan to Peshovargacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan edi. Viloyatni kushon-sosoniy hukmdorlar boshqarishgan. O'rta Osiyodan o'tuvchi barcha savdo yo'llarini nazorat qilish kushon-sosoniy hokimlari bo'yniga yuklangan edi. Balxning o'zida sosoniy podsholari – Varaxran I (273-276) va Nars (293-302) tangalari zarb qilingan[15, 263]. Shu bilan birga, kushon-sosoniy hokimlarga oltin va mis tangalar zarb qilish huquqi berilgan. Ular o'z pullarini kushonlar standarti asosida zarb qilishgan. Negaki, Hindiston bilan savdo aloqalari mustahkam bo'lib, u yerda hali kushonlar davridagi tanga zarb qilish an'analari o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi[16, 770].

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Arxeologik manbalar va numizmatik materiallarga qaraganda, Baqtriya-Toxaristonda sosoniylar hukmronligi mustahkam bo'lmagan[17, 152]. Sosoniy tangalarining zarb qilinishi muntazam davom etmagan. IV asr o'rtalariga kelib, shimoldan kelgan ko'chmanchi kidariy qabilalari sosoniylarning Baqtriya-Toxaristondagi hukmronligiga chek qo'yadi[18, 770]. Jumladan, xitoy yilnomasi "Bey-shi"da xabar qilinishicha, yuechjilar hukmdori jujanlar hujumidan bezor bo'lib, o'z saroyini Bolo (Balx) shahriga ko'chiradi. Shundan so'ng dovyurak yuechji hukmdori Sidolo (Jiduoluo) o'z qo'shinlari bilan katta tog'lardan o'tib, Shimoliy Hindistonga hujum qildi va Gantolodan shimoldagi beshta davlatni o'ziga bo'ysundirdi. "Bey-shi"dagi boshqa ma'lumotda yozilishicha, Katta yuechji hukmdori Kidolu xunnlar tomonidan quvilib, g'arbga ketishga majbur bo'lgach, o'z qarorgohini o'g'liga topshiradi. Shundan so'ng bu mulklik Kichik yuechji nomini olgan.

Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, Hindikushdan janubdagi hududlarda braxmi tilidagi "Kidara kushana sha" so'zlari yozilgan tangalar topilgan. Bu tangalar 390-430 yillar oralig'ida chiqarilgan. Xitoycha Jiduoluo so'zi Ki-da-ra deb talqin qilinadi. Xitoy yilnomalaridagi Kidolo bilan tangalarda bitilgan Kidara aynan bir odamga tegishli bo'lgan. Bu esa kidariylarning kushonlarga qardosh el ekanligini ko'rsatadi. Gumilevning yozishicha, 418-419-yillarda jujanlar Tarbag'atoyda yashagan xunnlar bilan yuechjilarning qoldiqlarining tor-mor keltirishgach, ular janubga siljib, Bolo shahrini egallaydilar. Bu yerda ular Eron sosoniylari va eftaliylar bilan to'qnashishgan[19, 93-94]. Kidaraning safdoshlari – kidariylar tarixda etnik nomlari bilan emas, balki o'z yo'lboshchisining nomi bilan atalib qolgan[20, 18].

Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi Baqtriya-Daxya o'lkasi milodiy 383 yildan boshlab xitoy yilnomalarida Tuxolo-Toxariston deb atala boshlangan[21, 119]. Ungacha bu yurt Katta Yuechji xonadoni mulkligi nomi bilan atalar edi. Shu bois ko'pchilik tadqiqotchilar yunon manbalaridagi toxarlarni xitoy yilnomalarida qayd etilgan yuechjilar bilan aynan bir deb bilmoqdalar. Toxariston – "toxarlar yurti" bo'lib, qadimgi Baqtriya o'rniga to'g'ri keladi.

Milodiy V asr o'rtalariga qadar kidariylar va sosoniylar o'rtasida shiddatli kurashlar olib borildi. Bu kurashda sosoniylarning qo'li baland keldi. Ammo ular Toxariston yerlarida uzoq qolishmadi. Siyosiy maydonga eftaliylar chiqib kelishdi. Ular 456-yilda Xitoyga elchi yuborishdi. Sosoniylar bilan bo'lgan kurashda g'olib chiqib, Eronga juda katta miqdorda o'lpon to'lashga majbur qilishdi.

Istilochilik yurishlari natijada V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning boshlariga kelib O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eron,

Shimoliy Hindiston va hozirgi Afg‘oniston yerlarini o‘z ichiga olgan qudratli Eftaliylar davlati shakllanadi. Uning maydoni kushonlar davlatidan ko‘ra ancha katta bo‘lsa-da, siyosiy jihatdan uncha mustahkam emas edi. Shunga qaramay, bu davlat O‘rta Osiyo va boshqa sharq davlatlari tarixida muhim rol o‘ynadi. Eftaliylar qariyb 200 yildan ortiqroq vaqt mobaynida davom etib kelayotgan sosoniylar Eroni tajovuziga nafaqat chek qo‘ydi, balki ularni butunlay mag‘lubiyatga uchratdi. Muhimi, eftaliylar, Kushon va Qang‘ davlatlari inqirozidan so‘ng yuzaga kelgan tarqoqlikka chek qo‘yib, O‘rta Osiyoni yagona davlatga birlashtira oldilar.

Milodiy VI asrdan boshlab Chag‘oniyonning iqtisodiy-siyosiy markazi hozirgi Denov shahridan 6 km janubi-sharqda, Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyidagi Budrach shahriga o‘tdi. Shahar miloddan avvalgi I asrdan to milodiy XVI asrga qadar mavjud bo‘lgan.

Chag‘oniyon – eftaliylar davlatining yirik viloyatlaridan biri bo‘lgan. Bu o‘lkani “chag‘onxudot” (*Čaγān-Xuδāh*) unvoniga ega hukmdor boshqargan[22, 226]. Chag‘onxudotlar tomonidan tangalar zarb qilish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Budrachdan sosoniy podsholari Peroz va Xisrov I ning kumush tangalari bilan birga chag‘onxudotlarning mis tangalari ham topilgan[23, 256-262]. Bundan tashqari, Peroz tangalariga taqlidan yasalgan eftaliy tangalari Xayrobodtepa, Xolchayon va Dalvarzintepadan ham uchraydi. Chag‘oniyondan topilgan eftaliy tangalarida podsho unvoni – χδηο ham keltirilgan bo‘lib, bu so‘z qadimgi baqtrcha «hukmdor» degan ma’noni anglatadi.

Kushon podshosi bilan Smbatning yakka olishuvi ko‘p jihatdan Balazuriy tomonidan tavsiflangan 654-yilgi chag‘onxudot bilan arab sarkardasi al-Ahnaf o‘rtasidagi jangga o‘xshab ketadi. Bu haqda sal quyida to‘xtalib o‘tamiz. Balazuriy ushbu jangda Chag‘oniyon podshosiga alohida urg‘u berishi VII asr ikkinchi yarmida Chag‘oniyonning Toxariston viloyatlari ichida yetakchi mavqega ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Chag‘oniyon hokimining al-Ahnaf bilan yakkama-yakka jang qilishi fors qo‘mondoni bilan jang qilgan kushon podshosining aslida Chag‘oniyon hukmdori bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Sosoniylar har qancha urinishmasin, Toxariston yerlarini saqlab qololmadilar. 618-630 yillarda hukmronlik qilgan G‘arbiy Turk hoqoni To‘n yabg‘u davrida Toxariston uzil-kesil turklar qo‘liga o‘tib ketadi. Shunga qaramay, Toxariston, ayniqsa Chag‘oniyon hokimlari turklarga nomigagina qaram bo‘lib, amalda mustaqil edilar. Ularning siyosiy mustaqil ekanligi tangalarning zarb qilinishida namoyon bo‘ldi.

VI-VII asrlarda Chag‘oniyonda kumush va mis tangalarni zarb qilish yo‘lga qo‘yildi. Bu borada u Termiz va Guftan mulkliklaridan ajralib turgan. Shu bilan birga, Chag‘oniyonda V asrdan to VI asr ikkinchi yarmiga qadar sosoniylar draxmasining roli baland bo‘lganligini ta’kidlash lozim. Negaki, Chag‘oniyon hududidan Varaxran V, Peroz, Xisrov, Xo‘rmuzd IV, Xisrov II tangalari topilgan. Keyinroq, Xisrov I draxmalari va chag‘onxudotlar tangalariga taqlid qilish kuchaygan. Chag‘oniyonning kumush tangalari Xisrov I draxmalariga taqlidan zarb qilingan. Unda baqtrcha yozuv bitilgan. Boshqa viloyatlarda V asr oxiri – VIII asr boshlarida muomalada Peroz draxmalariga taqlid qilingan tangalar yurgan. Chag‘oniyonda yuqori sifatli sosoniy draxmalari bilan bir qatorda mahalliy kumush va mis tangalari ham ishlatilgan.

Qadimgi Chag‘oniyonning kumush tangalariga baqtr yozuvlar bitilgan. Shu bilan birga, VI-VII asrlarda Chag‘oniyon hokimlarining butun bir sulolasi aniqlangan. Chag‘oniyonda o‘ng tomonida hokim va malika tasviri tushirilgan, orqa tomonida esa tepa va quyi uchlari ilgakka o‘xshash rombsimon tamg‘asi bo‘lgan yupqa mis tangalar ham zarb qilingan. Ular Choch va

So‘g‘d tangalariga o‘xshaydi-yu, ammo tasvirlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Tangalardan biri g‘oyat antiqa bo‘lib, bunday xil tanga dunyodagi boshqa hech bir muzeyida topilmaydi. Mazkur tanga boshqalaridan baqtriya tilidagi kursivli so‘zlari borligi bilan ajralib turadi. Taxminan shu davrning o‘zida Chag‘oniyonga qo‘shni bo‘lmish termizshohlar saroyida g‘aroyib shaklli tangalar zarb etilgan. Ularning ba’zi birlari o‘ta skifat (yong‘oq po‘choq) shaklida bo‘lib, boshqalari yassiroq (o‘ngida qanotli chambar kiygan hukmdor siymosi, tersida tamg‘a tasvirli, yozuvlari yo‘q tangalar edi. Tangalardagi o‘zgarishlarga qarab, VII asrning birinchi yarmida Chag‘oniyondagi hokimiyat turkiy sulola qo‘liga o‘tganligini ta’kidlash mumkin.

Chag‘onxudotlar sulolasi hukmronligining qachon tugaganligi aniq emas. Ular haqida tarixiy manbalarda VIII asr oxiriga qadar tilga olinishiga qaraganda mazkur sulola IX asr birinchi choragiga qadar boshqarganligini ta’kidlash mumkin. Undan keyin Chag‘oniyon amirlarining hukmronlik davri boshlangan.

XULOSA. Xulosa qiladigan bo‘lsak, ilk o‘rta asrlar davrida O‘rta Osiyodagi feodal davlatlar ichida Chag‘oniyonning mavqei ancha baland bo‘lgan. Chag‘oniyon hukmdorlari o‘z nomlaridan tangalar zarb qildirishgan. Uzoq va yaqin o‘lkalar bilan elchilik va savdo-sotiq ishlarini yo‘lga qo‘yishgan. Afrosiyob saroyidagi bitiklar va xitoy yilnomalaridan kelib chiqiladigan bo‘lsa, VII asrning 2-yarmida Chag‘oniyon davlatida devonxona bo‘lgan. Xitoydagi Tan sulolasi Chag‘oniyonni mustaqil davlat sifatida bilgan. Arablar istilosi davrida ham Chag‘oniyon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, ular bilan ittifoq bo‘lib, o‘z davlatchilik an’analarini saqlashga harakat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Тургунов Б.А, Лившиц В.А, Ртвеладзе Э.В. Открытие бактрийской монументальной надписи в Айртаме // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, Т., 1981. – С.4.
2. Вертоградова В.А. Индийская эпиграфика из Кара-тепе в Старом Термизе. Проблемы дешифровки и интерпретации. М., Наука, 1995, – С.45.
3. Аннаев Т, Шайдуллаев Ш. Сурхондарё тарихидан лавҳалар. Т., Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1997. – Б. 47-48.
4. Ставискмй Б.Я. Кушанская Бактрия. – М., Наука, 1977, – С. 34-35.
5. Tomasrhek W Gentralasiatishe Studin. Sogdiana. Wien. 1877.
6. Маев Н.А. Географический очерк Туркестанского края // Материалы по статистике Туркестанского края. Выпуск V, 1879.
7. Аршавская З. А, Ртвеладзе Э.В, Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Т., Издательство литературы и искусство имени Г. Гуляма. 1982.
8. Ртвеладзе Э.В. Чағониёнга саёҳат// Чағониён тарихи. – Т., Тошкент Ислом университети., 2002, – Б. 35-36.
9. Яйленко В.П. Палеоазиаты и этническая история древней Средней Азии// Проблемы этногенеза и этнической истории нарадов Средней Азии и апзахстана. Тезесы докладов. – М., Наука, 1988, – С. 132-134.
10. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Т., Фан, 1975, – С. 55.
11. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба – Т., Фан, 1975, табл. XXIII-XXIV.
12. Ртвеладзе Э.В, Сагдуллаев А. Памятники минувших веков. – Т., “Узбекистан”, 1986, – С. 94.
13. Third Century Iran Sapor and Kartir. By Martin Sprengling. Prepared and distributed at the Oriental institute university of Chikago. Chikago, 1953. –P. 7, 14.

14. Ставиский Б.Я. Кушанская Бактрия. – Б.176.
15. Nikitin A.B. Notes on the Chronology of the Kushano-Sasanian Kingdom // Coins, Art and Chronology. Wien, 1999. – P. 259-263.
16. Brunner Christopher. Geographical and Administrative divisions: Settlements and Economy //The Cambridge History Of Iran: Volume 3 (2). The Seleucid, Parthian, and Sasanian periods. Edited by Ehsan Yarshater. Cambridge: Cambridge University Press. 1983. –P. 770.
17. Завьялов В.А. Кушаншахр при сасанидах. По материалам раскопок на городище Зартепа. СПб: Факультет филологии и искусств СПбГУ, 2008. –С.152.
18. Brunner Christopher. Geographical and Administrative divisions: Settlements and Economy. – P. 770.
19. Гумилев Л.Н. Эфталиты-горцы или степняки. *«Вестник древней истории», 1967, № 3. – С.* 93- 94.
20. Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 18.
21. Литвинский Б.А., Соловьев В.В. Средневековая культура Тохаристана (В свете раскопок в Вахшской долине). Москва: Наука, 1985. – С. 119.
22. Marquart J. Eransahr nach der Geographie des Ps. Moses Xorenaci. Mit historisch - kritischem Kommentar und historischen und topographischen Excursen. Berlin: Weidmannsche Buchhandlnng, 1901. – P. 226.
23. Пугаченкова Г.А. Уникальная группа монет чаганианского чекана VI в. // Культура и искусство древнего Хорезма. –Москва: Наука, 1981. –С. 256-262.